

Kutlimuradova Sh.A.

*Urganch davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi
(geografiya) yo'nalishi 1-bosqich magistranti
O'zbekiston Respublikasi.*

7-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA "AFRIKA" MAVZUSI

DOIRASIDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL QILISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7-sinf geografiya darsligidagi "Materiklar va okeanlarning tabiati" bobida Afrika materigiga oid mavzular doirasida tashkil etilishi mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, ularni o'tkazish usullari ko'rib chiqiladi. Maqsad darslikda keltirilgan matnli va vizual materiallar, xususan, xaritalar, rasmlar, jadvallar va iqlim diagrammalari asosida turli xil amaliy mashg'ulotlarni yaratish va ularni yechish usullarini namoyish etishdir. Maqolada muhokama qilingan amaliy mashg'ulotlar maktab geografiya o'qituvchilari uchun mazkur mavzularni o'qitish jarayonida va o'quvchilarni geografiya olimpiadasiga tayyorlashda muhim vosita bo'lib hisoblanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Afrika matergi, geografik o'rin, iqlim diagrammasi, iqlim mintaqalari, materikning chekka nuqtalari, milliy bog'lar, tabiiy geografik o'lkalar, tabiat zonalari, qo'riqxonalar.

Кутлимурадова Ш.А.

*Ургенчский государственный педагогический институт
I курс магистратуры по специальности «методика преподавания
точных и естественных наук» (география)
Республика Узбекистан.*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО ТЕМЕ «АФРИКА» НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ ДЛЯ 7 КЛАССА.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические упражнения, которые можно организовать в рамках тем, связанных с африканским континентом, в главе «Природа континентов и океанов» учебника географии для 7-го класса, а также методы их проведения. Цель

состоит в создании разнообразных практических упражнений на основе текстовых и визуальных материалов, представленных в учебнике, в частности карт, рисунков, таблиц и климатических диаграмм, и демонстрации методов их решения. Рассмотренные в статье практические упражнения могут рассматриваться как важный инструмент для школьных учителей географии в процессе преподавания этих тем и подготовки учащихся к географической олимпиаде.


***Ключевые слова:** Африканский континент, географическое положение, климатическая диаграмма, климатические регионы, крайние точки континента, национальные парки, природные географические регионы, природные зоны, природные заповедники.*

***Kutlimuradova Sh.A.**
Urgench State Pedagogical Institute
1st-year Master's student in "Methodology of Teaching Exact and
Natural Sciences" (Geography)
Republic of Uzbekistan.*

METHODS OF ORGANIZING PRACTICAL WORK ON THE TOPIC "AFRICA" IN GEOGRAPHY LESSONS FOR GRADE 7.

***Abstract:** This article examines practical exercises that can be organized within the framework of topics related to the African continent in the chapter "The Nature of Continents and Oceans" in a 7th-grade geography textbook, as well as methods for conducting them. The goal is to create a variety of practical exercises based on the textbook's textbook elements, including maps, figures, tables, and climate diagrams, and to demonstrate methods for solving them. The practical exercises discussed in this article can be considered an important tool for school geography teachers in teaching these topics and preparing students for the Geography Olympiad.*

***Key words:** African continent, geographical position, climate diagram, climatic regions, the most remote points of the continent, national parks, natural geographical regions, natural zones, nature reserves.*



ASOSIY QISM: Maktab geografiyasida materiklarni o'rganish Afrika materigidan boshlanadi. Ushbu materik mavzusini yoritishda, uning joylashgan o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi, negaki faqatgina ushbu materik Yer sharining har to'rtta yarim sharida joylashgan yagona materik sanaladi. Materikning qirg'oqlarini shimolda O'rta dengiz, g'arbda Atlanika okeani va sharqda Hind okeani suvlari o'rab turadi.

1-TOPSHIRIQ. Quyidagi jadvalni to'ldiring ?

1-jadval.

AFRIKA MATERIGINING CHEKKA NUQTALARI JADVALI.

T/R	MATERIKNING CHEKKA NUQTALARI	MATERIK CHEKKA NUQTALARI KOORDINATALARI	EKVATORGA NISBATAN UZOQLIGI (KM)	BOSH MERIDIANGA NISBATAN UZOQLIGI (KM)
1.				
2.				
3.				
4.				

Jadval muallif tomonidan tuzildi.

Jadvalni to'ldirishda o'quvchi maktab darsligidagi tabiiy xaritadan yoki 7-sinf "Materiklar va okeanlar geografiyasi" atlasidan foydalangan holda Afrika materigining chekka nuqtalari koordinatalarini aniqlaydi va ularni jadvalga yozib qo'yadi. Keyinchalik Afrika materigi har bir chekka nuqtasini ekvator va bosh meridianga nisbatan necha kilometr uzoqda ekanligini parallel va meridian yoylaridan foydalangan holda hisoblab topadi. Jadvalni to'ldirishda albatta geografiya fani o'qituvchisi tushuntirishlarini olib borishi lozim.

Bir paytlar Gondvana materigining bir qismi bo'lgan ushbu materikdan vaqtlar o'tib Hindiston va Arabiston hududlari ajralib chiqqan, hozirda ham

bunday tektonik jarayonlar materikning sharqiy qismida faol davom qilmoqda (1-rasmga qarang).

Olimlarning fikriga ko'ra Sharqiy Afrikadagi bo'linish muqarrardir, negaki Yer po'sti yuqalashuvi 15 kmdaga yetsa bu jarayonni yuz berishi aniqlashadi. Ushbu hudud Yer po'sti qalinligi hozirgi kunda 13,2 km tashkil qiladi bu esa mazkur tektonik jarayonni yanada tezlashuviga olib keladi.

Aytinchi, Buyuk Afrika yorig'i hozirgi kunda qanday jarayonlarni sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

2-TOPSHIRIQ. Millon yillardan keyin Afirka materigi va undan ajralgan materik-orolda qanday iqlim o'zgarishlari kuzatiladi. Izohingizni amaliy mashg'ulot daftaringizga yozing ?



2-rasm. Afrika materigining sharqiy qismini ajralishi(A) va uning million yillardan keyingi taxmin qilingan ko'rinishi(B) [1. 52 bet].

3-TOPSHIRIQ. Quyidagi geografik obyektlarni jadvalda berilgan mos turlarga ajratib yozing ?

Geografik obyektlar: Kivu, Efiopiya, Tubkal, Tana*, Kanar, Nil, Marra, Yaxshi Umid, Shari, Namib, Suvaysh, Kattara, Kagera, Somali, Gibraltar, Zanzibar, Ringva, Kalaxari, Komor, Bioko, Adan, Kap, Ko'k Nil, Drakon, Kongo*, Darfur, Etosha, Liviya, Rudolf, Yevropa, Senegal, Viktoriya*, Ubangi, Tibesti, Limpopo, Chad, Madagaskar, Sahroi Kabir, Niger, Sharqiy Afrika, Lualaba, Nyasa*, Ras Xafun, Mozambik, Oranj, Almadi, Zambezi, Annobon, Okavango, Taxat, Bob-al-Mandob, Ben-Sekka, San Tome, Tanganika, Assal,

Atlas, Qizil, Jubba, Madeyra, Uebi Shebelle, Keniya, Stenli, Igna, Margerita, Ngorongoro, O'rta, Benue, Afar, Kasai, Gvineya, Oq Nil, Kamerun*, Ras Dashen, Kilimanjaro*, Livingston, Rufiji, Karisimbi, Volta, Axaggar, Serengeti, Kvango, Emu-Kusi.

2-jadval.

AFRIKA MATERIGIDAGI GEOGRAFIK OBYEKTLAR JADVALI

T/R	Geografik obyekt turi	Geografik obyekt nomi
1.	Tog'lar va tog'liklar	<i>Atlas, Sharqiy Afrika, ..., ...,</i>
2.	Choqqilar	<i>Ras Dashen, Taxat, ..., ...,</i>
3.	Harakatdagi vulqonlar	<i>Kamerun, ..., ...,</i>
4.	Cho'llar	<i>Sahroyi Kabir, Kalaxari, ..., ...,</i>
5.	Chekka nuqtalari	<i>Yaxshi Umid burni, Ben Sekka burni, ..., ...,</i>
6.	Dengizlar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar.	<i>O'rta dengiz, Mozambik bo'g'izi, ..., ...,</i>
7.	Daryolar va kanallar.	<i>Nil, Tana, ..., ...,</i>
8.	Ko'llar va suv omborlar.	<i>Tana, Kivu, ..., ...,</i>
9.	Milliy bog' va qoriqxonalar.	<i>Etosha, Ngorongoro, ..., ...,</i>
10.	Orollar va yarim orollar.	<i>Madagaskar, Komor, ..., ...,</i>

Jadval muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu jadvalni to'ldirish jarayonida o'quvchilar yuqorida ta'kidlaganimizdek darslikdagi matn va xaritalardan, shuningdek 7-sinf uchun mo'jallangan o'quv atlasidan foydalangan holda, berilgan obyektlarni geografik joylashuvni eslab qolishi talab qilinadi. Bu orqali ulardagi bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Shuningdek, ayrim geografik obyektlarni bir xil nomlar bilan yuritilishi hamda ularni ajratish ko'nikmasi shakllantirish, ushbu jadvalni to'ldirishning

muhim jihatlaridan biri sanaladi. Bunday tabiiy geografik obyekt nomlari Afrika materigida ayniqsa ko'p takrorlanadi. Masalan: Tana ko'li - Tana daryosi, Kamerun tog'lari – Kamerun vulqoni, Viktoriya ko'li – Viktoriya sharsharasi va hakoza.

Ayrim geografik obyekt nomlari ikki nom bilan yuritiladi, misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:


Niyasa ko'li - Malavi ko'li,

Kamerun tog'lari – Odam ato tog'lari,

Albert ko'li - Mobutu-Seso-Seko ko'li (1973-1997 yy).

4- TOPSHIRIQ. Raqamlar bilan berilgandaryo va kol nomlarini amaliy mashg'ulotlar daftarinigizga yozing ?

- 1. Senegal daryosi.**
- 2. Niger daryosi.**
- 3.**




3-rasm. 7-sinf darsligidan olindi.

O'quvchilarda Afrikaning yirik daryolari va ko'llarini geografik joylashuvini aniqlashda quyidagi rasm topshiriq muhim sanaladi.

Shuningdek, geografiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar doirasida qo'shimcha ravishda daryolarni qaysi suv havzasiga tegishli ekanligini ham vazifa qilib berib o'tsa bo'ladi.


5-TOPSHIRIQ. Quyidagi rasmdagi iqlim diagrammalarini o'rganib, ularning qaysi iqlim mintaqalarga tegishli ekanligini izohlang?



4-rasm. 7-sinf darsligidan olindi.

Izohingizni amaliy mashg'ulotlar daftaringizga yozing? Ayting-chi, rasmda berilgan qaysi iqlim mintaqasida haroratning yillik ampitudasi deyarli o'zgarmagan, yoki eng katta haroratning yillik o'zgarish qaysi iqlim mintaqasida kuzatilgan?

Yillik yog'in miqdori eng kam tushgan iqlim mintaqasini qaysi, eng ko'p tushgani-chi? A diagrammada Yanvar oyida yog'in miqdori juda ko'p, E diagrammada esa Iyun va Iyul oylarida deyarli yo'q, buning asosiy sababi nima deb o'ylaysiz? Javoblari daftaringizga qayd qilib boring.



5-rasm. 7-sinf darsligidan olindi.

6-TOPSHIRIQ. Yuqoridagi rasmdan foydalanib iqlim diagrammasi xaritada qaysi raqamga mos kelishini aniqlang? Eng past o'rtacha harorat va eng kam yog'in qaysi oylarga to'g'ri kelishini toping? Ushbu hudud qaysi iqlim mintaqasida va yog'inlarni qaysi havo massalari olib keladi?

Berilgan savollarga javoblaringizni asoslab daftaringizga yozing. Shuningdek, yillik o'rtacha havo haroratini, hamda yillik yog'in miqdorini hisoblab toping?

Mazkur bobga tegishli yana bir qator darslikda berilgan va berilmagan vazifalarni mustaqil ravishda tuzish va yechish har bir geografiya o'qituvchisi va geografiya faniga qiziquvchi o'quvchilar uchun o'z dunyoqarashini kengaytirishda va geografik bilimlarini chuqurlashtirishda asqotadi.

XULOSA. Nafaqat geografiya fanida balkim boshqa fanlarda ham amaliy ishlar tashkil qilinishi o'qituvchilarini o'z ustida ishlashga, o'quvchilarda esa darslarda egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada botitishga imkon beradi. 7-sinf geografiya darsligidagi Afrika materigi mavzularidan iborat bob doirasidagi amaliy mashg'ulot darslarini olib bo'rish orqali materikning turli geografik obyektlari, geografik o'rni, tekshirilish tarixi, foydali qazilmalari, iqlimi, suvlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, hamda tabiati muhofaza qilish borasidagi bilimlarga ega bo'ladilar va ularni mustahkamlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T. Mirakmalov va boshqalar. Geografiya 7[Matn]: 7-sinf uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. A.Soatov va boshqalar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. 6-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2012.
3. X.Vaxobov va boshqalar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2021.